

Toshmatova Mahfuza Mahmudovna

Farg‘ona viloyati Beshariq tumani

10-maktab texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi har doim turli sohalarda yangi kasblarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Har yili yaqin vaqtgacha faqat ilmiy-ommabop filmlarda ko‘rish mumkin bo‘lgan mutaxassislarga talab tobora ortib bormoqda. Mazkur maqolada kasblar haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar, Kasblar bo‘limi, mutaxassis, mehnat faoliyati, mahorat, tajriba, mashg‘ulot.

KIRISH

Kasb — (lotincha: professio — rasmiy ko‘rsatilgan mashg‘ulot, ixtisoslik) — maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi[1].

Kasb — kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg‘uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor (masalan, vrachlik kasbida xirurg , oftalmolog , dermatolog va boshqa). Kasb, odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi.

Kasblar ishslash sharoitiga ko‘ra bir necha guruhg‘a bo‘linadi. Kasblar guruhlari:

1. Odardagi mikroiqlimdagи mehnat
2. Harorat namlik keskin o‘zgarib turuvchi ochiq havoda ishslash bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat(mavsumiy ishchilar)
3. Odatdan tashqari mehnat. Yer osti suv osti, balandlik, havo qaynoq sexlar, odam salomatligiga zararli tasiri bo‘lgan joylarda ishslash
4. Odamlar sog‘ligi, hayoti uchun, jamoat boyliklari moddiy ne‘matlar uchun oshirilgam mas‘uliyat bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat.

ASOSIY QISM

Inson hayotidagi eng muhim va ma’suliyatlari qadam bu-bo‘lajak kasbini to‘g’ri tanlashdir. Kasb bu –ongli ravishda tanlangan yo‘l. Bunda qobiliyatlar va harakter hususiyatlar hisobga olinishi lozim. Yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun yetarli bilim va qobiliyatlarga ega bo‘lish kerak. To‘g’ri tanlangan kasb faqat insonning o‘zigagina emas jamiyatga ham foyda keltirishi kerak. Kasb so‘zining ma’nosi –insonlarning hunari, faoliyat turi va hayot kechirishlari uchun manba xizmatini o‘taydigan mashg‘ulotdir va bu mashg‘ulot sevimli bo‘lishi kerak, shunda inson hayotidan zavq olib yashaydi. Biron bir kasbga ega bo‘lish uchun albatta uni ongli ravishda tanlash kerak. Demak inson, kasb-hunarni o‘z qiziqishi, orzu-istagi, maqsadi, jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

ham kelib chiqib tanlashi maqsadga muvofiqdir. Kasblar to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaslik, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslik va o'z qobilyatlarini amaliyotga tatbiq eta olmaslik kasb tanlashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Har qanday ezgu maqsad birinchi qadamdan boshlanadi. Rejalahtirilgan qadamlar albatta maqsadlarga olib borishiga ishonch hosil qilish kerak. Dunyoda 40 mingdan ortiq kasb-hunarlar mavjud. Kasb tanlashda kasbiy qiziqishning ham o'ziga xos o'rni bor. Kasbiy qiziqish –kishining kasblar olamiga, insonning mehnat faoliyatidagi muayyan mehnat turlariga, bir yoki bir nechta kasblarga qiziqishi kabi tushunchalarni anglatadi. Kasbiy qiziqish bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. To'g'ridan to'g'ri qiziqish –kasbning o'ziga xos tomonlari bilan belgilanadi. Masalan, obro'-e'tibor, daromad, professional shaxsning maqomi, kasbiy o'sish istiqbollari, martaba va boshqalar.

Kasblar bo'limi

- 1 Qo'l mehnatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar
2. Qo'lda boshqariladigan mashinalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar
3. Avtomatlashtirilgan apparatlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar
4. Ish bajarish vositalari, mehnat qurollari ko'proq talab qilinadigan kasblar

Kasb inson uchun zarur bo'lgan, bo'sh vaqtida shug'ullanadigan, Vatani uchun xizmat qiladigan ishdir. Kasblarni hamma ham egallay olmaydi. Kasb o'rganish uchun eng avvalo o'qish va bilim olish zarurdir. Bilim olish igna bilan quduq qazishdek gap. Agar insonda bilim bo'limasa u o'zi istagan biror bir kasbni egallay olmaydi.

Hayotda kasblar shunchalik ko'pki, ular orasidan bittasini tanlash shunchalik qiyin. Shunga qaramasdan inson o'zi yoqtirgan, kasbli kishilarni kôrib shu kasbni yoqtirib qolib shu kasbni egallahsga harakat qiladi.

Kasb qanchalik muvaffaqiyatli tanlansa, inson o'zini shunchalik baxtli his qiladi. Ammo har qanday muttaxassislikni egallah uchun yaxshi o'qish va tanlanga kasbga kôproq qiziqish kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Kasb bu-hayot inson hayotidagi eng muhim va ma'suliyatli qadam bunda qobilyatlar va harakter hususiyatlar hisobga olinishi lozim. Yaxshi mutaxassis bo'lish uchun yetarli bilim va qobilyatlarga ega bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muxayyoxon, U., & Xilolaxon, U. (2022). *KASB BU-HAYOT*. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(5), 327-333.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <https://ktonanovenkogo.ru/voprosy-i-otvety/professiya-chto-ehto-takoe-kakie-byvayut-kakuyu-professiyu-vybrat.html>